



QO`SHRABOT TUMANI TARIXI

*Qurbanova Kibora Quvat qizi
 Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani
 Jo'sh QFY Navro'z mahallasi 48-uy*

Qo'shrabot tumani dastlab 1943- yil 13 -fevralda sobiq Mitan (hozirgi Ishtixon tumani hududi), Nurota va Xatirchi tumanlari hududlarining birlashuvi natijasida tashkil topgan. 1957 -yilda tuman tugatilgan, Nurota va Mitan tumanlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1978 -yilning 3- aprelida Qo'shrabot tumani Nurota, Kattaqo'rg'on, Payariq va Ishtixon tumanlari hududi hisobidan qayta tashkil etilgan. "Qo'shrabot" so'zi "ikki rabotning birlashishi" degan ma'noni anglatadi. Tumanda asosan o'zbeklar istiqomat qiladi. Qo'shrabot – Samarqand viloyatidagi qishloq tumani hamda tuman markazi nomi. Qo'shrabot so'zining birinchi komponenti Qo'sh so'zi ikki yoki juft ma'nosini anglatadi. Rabot so'zi esa dastlab islom dini tarqala boshlagan davrlarda harbiylar uchun mo'ljallab qurilgan bino, istehkom ma'nosini anglatgan. Keyinchalik karvonsaroy (mehmonxona) ma'nosini ham anglatgan. Rabot termini ko'plab joy nomlari hosil qilgan. Qo'shrabot yonmayon ikkita karvonsaroy qurilgan joy ma'nosini ifodalaydi.¹

Qo'shrabot tumanida qadimiy tarixning tilisiz guvohi bo`lgan joylar anchagina. Biz hikoya qilmoqchi bo`layotgan "Oqtepa"jamoa xo`jaligidagi uch qishloq: Shovona,Kesxovli, Og`atepa ham ana shular sirasiga kiradi.

Shovona. U haqda ko`plab rivoyatlar mavjud bo`lib, qishloq tarixi taxminan XII asrga borib taqaladi.Rivoyat qilishlaricha, shu qishloqda yashagan bir kampirning ikki o`g`li bo`lib, ular kun bo`yi mol boqar , kechasi dam olganlarida esa onalari mol-hallardan xabardor bo`lish uchun erta tonggacha olov yoqib o`tirar ekan. O`sha paytlarda ana shu manzilga qo`nib o`tadigan savdogarlar bu mushtipar ayolni Shom ona, ya`ni kechaning onasi, deb atashgan ekan. Shu bois Shomona qishlog`i mana yuz yillar o`tibdiki, nomi biroz o`zgargan holda Shovona bo`lib davom etib kelmoqda.²

Kesxovli haqida ham o`ziga xos rivoyatlar mavjud. So`zlashlaricha, bunda ham bir onaning ikki o`g`li bo`lib, ular uylanishibdi. Ko`p o`tmay aka-ukalar va ovsinlar orasida kelishmovchilik chiqa boshlaydi. Bundan tashvishlangan ona qishloq

¹ Temirov.G` "Dasht bag`ridagi javohir" .Zarafshon. 1993-yil 17-iyul

² Ko`bayev. B Rivoyatlar mag`zida tarix mujassam . "Qo'shrabot tumanida uch qishloq Shovona, Og`atepa, Kesxovli". Zarafshon. 1999-yil 8-aprel



oqsoqoliga murojaat etadi. Oqsoqol esa hovlini o`rtasidan ikkiga bo`lib, devor tortishni buyuradi. Shundan buyon hovli kesildi degan ma`noda Kesxovli kelib chiqib, qishloq hamon shu nom bilan ataladi.

Uchinchi qishloq Og`atepa haqida so`z yuritadigan bo`lsak, rivoyat qilishlaricha, Buxoro amirligining jabr-zulmidan qochgan ikki kishi katta tepaligi bor, aholisi uch-to`rt xo`jalikdan iborat bo`lgan Oqtepasoyga kelib yashay boshlaydi. Ko`p o`tmay esa ularni amir odamlari tutib olib ketmoqchi bo`ladilar. Shunda bu ikki musofir tiriklayin borgandan ko`ra shu yerda o`ldirib ketishlarini amir lashkarlaridan iltimos qilishadi. Lashkarlar ularni aytganlarini bajarib, tegishli belgilarni olgan holda, yana ortga qaytadi. Mahalliy xalq bu ikki qurban ni og`alar deb ataydi va tepalikka dafn etishadi. Shundan keyin shahid ketgan og`alar taqdiri bilan bog`lanib qishloq Og`atepa deya nom oladi.³

Qo`shrabot tumanining tarixi albatta shu yurtda istiqomat qilgan, xalqimizning iste`dodli vakillari nomi bilan ham bog`liqdir. Shunday insonlardan biri xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul bo`lib, Qo`rg`on dostonchilik maktabining vakilidir. Qo`rg`on dostonchilik maktabiga mansub baxshilar san`ati markazlaridan biri Qo`rg`on dostonchilik maktabi vakillari Mang`ishtov, Nurota tog`i, Oqtov etaklarida Miyonqolga qadar cho`zilgan keng hududda yashaganlar. Ularning ko`pchiligi Qo`rg`on qishlog`ida tarbiya topgan. Ergash Jumanbulbul o`g`lining ota-bobolari asos solgan bu maktab XVII-XX asrlarda yashagan Yodgor usta Kulay o`g`li, usta Lafas Yodgor o`g`li, Tilla kampir, Jolmon baxshi, Jumanbulbul, Josoq, Ergash Jumanbulbul o`g`li, Pulkan shoir, Mardi shoir kabi o`nlab dostonchilarni birlashtirgan. O`ziga xos chiroyli tasvirlar, notiqlik va jimjimadorlik Qo`rg`on dostonchilik maktabi uslubining asosiy belgilaridandir.⁴

Ergash Jumanbulbul o`g`li yodgorligi muzeyi 2019-yil Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov boshchiligidagi yangi zamonaviy ko`rinishda qayta tiklandi. 2020-yil 2-aprelda ochilish marosimi bo`lib o`tdi. Bugungi kunda xalqimizning sevimli sayohlik maskanlaridan biriga aylandi.

Qo`shrabot tumani Navoiy va Jizzax viloyatlari hamda Samarqand viloyatining Kattaqo`rg`on, Ishtixon, Payariq tumanlari bilan chegaradosh, tuman markazidan Samarqand shahrigacha bo`lgan masofa 100 kilometrni tashkil etadi.

³ Ko`bayev. B Rivoyatlar mag`zida tarix mujassam . “Qo`shrabot tumanida uch qishloq Shovona, Og`atepa, Kesxovli”. Zarafshon. 1999-yil 8-aprel

⁴ O`zbekiston Respublikasi viloyat hokimi “Qo`shrabot tumani tashkil topganining 50-yilligi hamda xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul tavalludining 125-yilligi”. Zarafshon.1993.19-avgust



Hozirda tumanda 7 ta qishloq fuqarolar yig‘ini va 39 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud. Tumandagi yirik soylar quydagilardir: Oqsoy, Sog`anoqsoy, G`ujumsoy, Pichotsoy, Pangatsoy, Urganjisoylardir.

Tuman asosan lalmikor hudud hisoblanib, aholisi chorvachilik, dehqonchilik, g`allachilik va tokchilik bilan shug‘ullanadi. Tuman aholisi to‘liq buloq suvlaridan va quduq suvlaridan foydalanadi. Tumanda chorvachilik va dehqonchilikdan tashqari sanoat ham yetakchi o‘rinni egallaydi. Tumanda Navoiy kon metallurgiya kombinatiga qarashli Zarmitan va G‘ujumsoy oltin konlari, Zarmitan dala qidiruv geologiya ekspeditsiyasi, konni boyitish 4-Gidrometollurgiya zavodi faoliyat ko‘rsatmoqda.⁵

Xulosa qilib shuni aytamanki, Qo`shrabot tumani Samarqand viloyatining chekka tumanlaridan biri bo`lib, tarixi uzoq o’tmishta borib taqaladi, tumanning katta qismini lalmikor yerlar tashkil etadi. Shuning uchun tuman aholisi yilning seryomg`ir bo`lishini xohlaydi.

Adabiyotlar:

1. Temirov.G' "Dasht bag'ridagi javohir" . Zarafshon. 1993-y 17-iyul
2. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshpo`lat Jumaboyev. 2001-2008y
3. Ko`bayev. B. Rivoyatlar mag'zida tarix mujassam. Zarafshon. 1999-yil 8-aprel
4. "Qo'shrabot tumani tashkil topganining 50-yilligi hamsa xalq baxshisi Ergashjumanbulbul tavalludining 125-yilligi". Zarafshon. 1993-y. 19-avgust
5. Google. Jahon internet tarmog'i

⁵ O`zbekiston milliy ensiklopediyasidan. Toshpo`lat Jumaboyev. 2001-2008y.